



73/76.37.0
8-91

KURS ISHI VA BITIRUV MALAKAVIY ISHLARNI TAYYORLASHGA DOIR METODIK TAVSIYALAR

*X.E. Sultanov,
S.T. Sobirov,*

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
зданий _____

--	--

13/06.37.0
1-96

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

5110800 – "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
bakalavriyat ta'lim yo'nalishida tasviriy san'at fanlaridan

**KURS ISHI VA
BITIRUV MALAKAVIY ISHLARNI
tayyorlashga doir**

METODIK TAVSIYALAR

Tuzuvchilar:
X.E. Sultanov, S.T. Sobirov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

**TOSHKENT
VNESHINVESTPROM**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 2022 OLIV TAILIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
**AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI**

-4060-

Tagirichi: I. I. Abduraxmonov - O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasini s.f.n. dotsent

Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarni bajarishga doir metodik tavsiyalar tuzuvchi mualliflar: X.E. Sulmanov, S.T. Sobirov

Ushbu metodik tavsiyaning asosiy maqsadi talabalarga tasviriy san'at va chizmachilik fanlari bo'yicha kurs ishi va bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va amalga oshirishda yaqindan yordam berishdan iborat. Bitiruv malakaviy ishi bajarishning maqsad va vazifalari, ishini bajarishning ketma-ketligi va himoya qilish tartibi yoritib berilgan. CHDPU, 60111200 (51110800) - Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan.

Ushbu metodik qo'llanma Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o'quv uslubiy Kengashining 2022 yil 19 maydagi № 9-sonli qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

Kurs ishlari qo'yiladigan talablar	3
Tadqiqot mavzusini tanlash	4

1. Kurs ishlari qo'yiladigan talablar.

Kurs ishlarni bajarish va shakllantirish o'ra va oliy pedagogika muassasalaridagi eng muhim va istiqbolli ilmiy tadqiqot turi hisoblanadi. Talaba va o'qituvchining o'zaro hamkorligida bo'lg'usi pedagog shaxsiyati shakllanadi, dolzarb pedagogik va metodik muammolarni hal qilish, ilmiy pedagogik va psixologik adabiyotlarni mustaqil tushunish, nazariy bilimlarni amaliyotda ko'llash ko'nikmasi rivojlanadi.

Kurs ishlarni bajarish o'quv rejasida ko'zda tutilgan va har bir talaba uchun zarur vazifa hisoblanadi. Talaba kurs ishini bajarish natijasida o'zining tadqiqot olib borish imkoniyatini ko'rsata bilishi kerak. Shu maqsadda bo'lg'usi o'qituvchilar qo'yidagi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- a) pedagogika, psixologiya, falsafa, sotsiologiya fanlari bo'yicha bibliografik ko'rsatkichlardan foydalanishni o'rganish;
- b) mavzu bo'yicha minimal darajadagi muayyan adabiyotlarni o'rganish va zaruriy ma'lumotlarni qayd qila olish;
- v) zamonaviy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida o'rganilayotgan masalaning holatini izchil bayon qilish;
- g) agar mavzu zaruriy bo'lsa, turli tipdagi ta'lim muassasalaridagi pedagogik tajribalarni yig'ish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- d) tajriba-sinov ishini o'tkazish, qo'lga kiritilgan empirik materialni qayta ishlash, uni tahlil qilish, tizimga solish, izohlash va zaruriy xulosalarni chiqarish.

Tadqiqot mavzusini tanlash

Kurs ishi mavzulari 1 yil oldin tegishli kafedra majlisida muhokama qilinadi, tasdiqlanadi va talabalarga ma'lum qilinadi. Kurs ishi asosan 3-4 blok fanlari bo'yicha yoziladi. Kurs ishi mavzularining to'plami quyidagi talablariga javob berishi zarur:

- a) bo'lajak o'qituvchini tayyorlash vazifalariga mos kelishi;
- b) zamonaviy ilmiy-pedagogik tadqiqotlar yo'nalishlari va muammolarini hisobga olishi;

v) alohida o'kituvchilar va kafedra jamoasi tomonidan tadqiq qilinayotgan muammolarga talabalarni jalb qilishi;

g) psixologik-pedagogik nazariya va amaliyot sohasiga nisbatan talabalarning xilma-xil qiziqishlarini hisobga olishi;

d) maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilariga ta'lim va tarbiya berishning dolzarb muammolarini ishlab chiqishi zarur. Kurs ishi mavzulari turli usullar yordamida belgilanishi mumkin:

1. *O'qituvchi talabani kurs ishi mavzusini belgilaydi. Agar o'kituvchi muayyan bir muammo bo'yicha tadqiqot ishini olib borayotgan bo'lsa, u shu mavzu yuzasidan talabaga kurs ishi mavzusini berishi mumkin.*

2. *Talaba o'z amaliy faoliyatida duch kelayotgan qiyinchiliklarini bartaraf qilish uchun yordam beruvchi mavzu bo'yicha ishlash ham mumkin. Bu yo'nalishdagi mavzularni odatda OTMga kirgunga qadar pedagogik faoliyat olib borgan yoki ish bilan o'qishni birgalikda olib borayotgan talabalar tanlab oladilar.*

3. *Talaba o'z qiziqishlariga mos keluvchi mavzular bo'yicha ish olib boradi. Talabaga mustaqil ravishda tadqiqot mavzusini tanlashda quyidagi usullar yordam beradi:*

a) yetakchi mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan ilmi-fan yutuqlarining qisqa tahliliy tafsilotlarini o'rganish (chunki ushu tafsilotlarning oxirida hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar albatta ko'rsatiladi);

b) oldin bajarilgan tadqiqotlarda o'rganilgan muammolarga yaqin mavzularni tanlash, bunda yangi, yanada mukammalroq metodlardan foydalanish;

v) oldin tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan, ammo o'rganilmagan gipotezalarni tekshirish;

g) maxsus adabiyotlar va davriy psixologik-pedagogik nashrlar bilan muntaзам tanishib borish;

d) dolzarb ahamiyatga ega, kam o'rganilgan muammo va masalalarni aniqlash maqsadida yetakchi olimlar bilan maslahatlashish.

Kurs ishi mavzusi aniqlanib, ilmiy rahbar bilan kelishilganidan so'ng kurs ishini bajarish bosqichlari aniqlashtirilgan kalendar-reja ishlab chiqiladi. Mazkur reja tadqiqot ishining borishini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi va talabaga kurs ishini mustaqil hamda ongli ravishda bajarishiga yordam beradi.

Kurs ishi quyidagicha tuzilishga ega bo'lishi mumkin:

1. Titul varagi. U quyidagi talablar asosida shakllantiriladi. Yuqorida - oliy ta'lim muassasa va kafedra nomi, varaqning o'rtasida talabaniy familiyasi, ismi, otasining ismi, kursi va fakultet yoziladi. Quyiroqda kurs ishining mavzusi, yana ham pastroqda o'ngdan ilmiy rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, chapda uning ilmiy darajasi va unvoni ko'rsatiladi. Pasda kurs ishi yozilgan yil qayd qilinadi (1-ilova).

2. Mundarija, bunda kurs ishining rejasini va uning bob, bo'limlari ko'rsatiladi. Mundarija kurs ishining tuzilishiga qar'iy mos bo'lishi qisqa, lo'nda, ketma-ketlikda va aniq tarzda uning ichki mantiqini ochib berishi zarur. Shuningdek, unda ishning har bir bob va paragrafi qaysi sahifadan boshlanishi aniq ko'rsatiladi.

3. Kirish. Ishning bu qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning asosiy xarakteristikalarini (tadqiqotning muammosi, ob'ekti, predmeti, maqsad-vazifalari, gipotezasi) ko'rsatiladi.

Kirishda, shuningdek, tadqiqotning asosiy g'oyasi haqida ham ma'lumot beriladi. Bu qismda adabiyotlarga havolalar beriladi, lekin juda ko'plab sitatani kelirish shart emas. Ishning kirish qismi A-4 formatda, 2-3 varaqdan iborat bo'lishi zarur.

Tadqiqotning asosiy xarakteristikalarini to'g'ri shakllantirilganligini bilish uchun quyidagi savollarga javob berishga harakat qilinishi kerak:

- tadqiqot muammosini aniqlashda - Oldin o'rganilmagan muammolardan qaysi birini o'rganish zarur?
- tadqiqot mavzusini tanlashda - tadqiqot muammosi kurs ishi mavzusida o'z aksini topganmi?
- dolzarbligni asoslashda - nima uchun aynan shu muammo bugun o'rganish shart?
- tadqiqot ob'ektini belgilashda - nima tekshiriladi?
- tadqiqot predmetini aniqlashda - ob'ekting qaysi yangi jihatlari, munosabatlari aspektlari, o'ziga xos tomonlari, funktsiyalari tadqiq qilinishi zarur?
- tadqiqot maqsadini shakllantirishda - maqsadga erishish uchun nima qilish kerak? Amalgah oshiriladigan vazifalar vositasida maqsadga erishish mumkinmi?
- tadqiqot gipotezasini ilgari surishda - tadqiqot maqsadiga erishish uchun qaysi yo'ldan borish zarur?
- ochiq himoyaga olib chiqilayotgan holatlarni aniqlashda - tadqiqotning

ob'ekti va predmetida boshqalar sezmagani qanday xususiyatlar bor? va h.k.

Kurs ishi talabalarni pedagogik tadqiqotga jalb qilishning birinchi bosqichi bo'lganligi tufayli unda barcha xarakteristikalarni ko'rsatib berish shart emas. Ullarning ayrimlarigina, xohishga ko'ra, aniqlanirishi mumkin (masalan gipoteza). Xarakteristikalarni shakllantirish ilmiy rahbar malakasi, mahorati, talabning ilmiy tayyorgarligi, tadqiqot mavzusining spesifikasi va boshqa vaziyatlarga bog'liq bo'ladi.

Kurs ishi mavzusini kelgusida chuqurroq, kengroq doirada o'rganib, uni bitiruv malakaviy ish sifatida davom ettirmoqchi bo'lgan talabalar tadqiqot ilmiy tuzilmasining barcha qismlarini jiddiy o'ylab ko'rishi zarur.

4 Kurs ishining asosiy qismini rejadagi asosiy punktlarni o'z ichiga oladi. Unda tekshirilyotgan masalaning tarixi va nazariyasi ko'rsatiladi, mavjud adabiyotlarning tanqidiy tahlili beriladi, muallifning o'z nuqtai nazarini bayon qilinadi. So'ngra mustaqil ravishda o'tkazilgan tadqiqotning metodlari, tashkili etilishi va natijalari bayon qilinadi.

Ishni mavzuga doir adabiyotlarni o'rganishdan boshlash zarur. Bibliografik ma'lumotlarning 3 xil manbasini ajratiladi:

- a) birinchi (maqolalar, dissertatsiyalar, monografiyalar va h.k.);
 - b) ikkinchi (bibliografiya, referativ jumallar, ilmiy axborot va h.k.);
 - v) uchinchi (boshqa kitoblardan terib olib yozilgan asarlar, lug'atlar va h.k.).
- Bibliografik (qayrda, qanday manbalarda zaruriy ma'lumotlar bor) va sof ilmiy-ma'lum bo'lgan bilimlar mazmunini bildiruvchi ma'lumotlarni farqlash kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida sohaga oid ilmiy, ilmiy-pedagogik jurnallarni ko'rib chiqish zarur. Bunda yil uchun jumallarning oxirgi sonida maqolalarning mavzular bo'yicha ko'rsatkichi nashr qilinadi. Muayyan mavzular bo'yicha adabiyotlar tafsilotlari bilan tanishish ham foydadan holi bo'lmaydi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha ma'lumotlar yig'ish natijasida quyidagilarga ega bo'lish lozim:

- a) kim va qayerda (qaysi ilmiy muassasa markazlarda) tadqiqot mavzusi yuzasidan ishlagan va ishlamoqda?
- b) ushbu ishlar natijalari qaysi manbalarda e'lon qilingan?
- v) mazkur natijalar nimalardan iborat?

Tababa tomonidan qo'lga kiritilgan ma'lumotlar yozma ravishda qayd qilinadi. Ularning uch turi mavjud.

Birinchi materiallarda bibliografik kartochoqalardagi yozuvlar sitatalar, mikrofilmlar, tadqiqot muammosiga doir alfavitli katalog kiradi.

Ikkinchi materiallar ilmiy yoki metodik manbadagi ma'lumotlarni analitik-sintetik qayta ishlash natijasi bo'lgan yozuvlar, rejalar (sodda va murakkab), grafik - sxemalar, mustaqil ravishda tuzilgan predmet ko'rsatkichlari, annotatsiya, tezis, konspekt va boshqalardan iborat bo'ladi.

Uchinchi materiallarda birinchi va ikkinchi materiallar umumlashtiriladi. Uning mazmuni qisqa tafsilot ko'rinishida bo'lib, unda mavzuga doir oldindan ma'lum bo'lgan ilmiy dalillar, qonuniyatlar, nazariyalar, tushunchalar umumlashtiriladi.

Tafsilotni tuzishdan avval mavzuga doir asosiy tushunchalarni aniqlash lozim. Chunki pedagogikada turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinayotgan atama va tushunchalar kurs ishining boshidan oxirigacha bir ma'noda tushunilishi zarur. Tushuncha va atamalar belgilanganidan so'ng ularning izohi quyidagi manbalardan aniqlashiriladi:

- a) ensiklopediyalar (masalan, pedagogik, psixologik, filosofik va h.k.);
- b) izohli lug'atlar: umumiy («O'zbek tiling izohli lug'ati» 3 tom) va maxsus (masalan, pedagogik, psixologik, sotsiologik);
- v) tadqiqot mavzusiga doir asosiy darsliklar va monografiyalarning mundarijasi hamda fani.

Tushunchalarning izohi topilganidan so'ng alohida varaqalarda kayd qilinadi va tahlil, qiyoslash, tasniflash, umumlashtirish usullari yordamida mazmunan qayta ishlanadi.

Tadqiqot mavzu tafsilotini yoritishda kamida 20 ta manbadan foydalanish zarur.

Keyingi bosqichda tajriba-sinov ishining tavsifi beriladi. Bunda tajribada qatnashganlar ko'rsatiladi.

Tajriba ishida foydalanilgan material ham izohlanadi. Agar ushbu material predmetlar tasviridan iborat bo'lsa, u ma'noga yoki ilovalarga kiritiladi. Shuningdek, bu yerda qanday asbob, apparat, uskunalardan foydalanilganligi ko'rsatiladi: ishning barcha bosqichlari tavsiflanadi, tajriba-sinov ishida qatnashchilarga berilgan ko'rsatmalar ham keltiriladi. Sinov natijalarida aniqlangan ma'lumotlar qaysi usulda qayta ishlanganligini alohida ko'rsatish yaxshi natija beradi.

Tajriba-sinov ishining natijalari jadval, grafik, diagramma ko'rinishlarida taqdim qilinadi. Jadval, rasmlar ostiga qisqa tarzda izohlar keltirilishi lozim. Barcha ma'lumotlar tartib bilan beriladi. Shu joyda, shuningdek, og'zaki hisobotlardan ham namunalar berish mumkin. Ishdagi eng muhim nuqtalardan

yana biri xulosalarni muhokama qilish jarayoni hisoblanadi. Bunda quyidagi savollarga javob topish zarur: Nima uchun shunday bo'ldi? Buning sabablari nimada? U yoki bu dalilni nima bilan izohlash mumkin? Ishning bu bosqichida boshqa mualliflar tomonidan olingan nazariy va amaliy xulosalarni jalb qilish, ya'ni ular bilan o'z shaxsiy xulosalarini qiyoslab ko'riladi va olingan ma'lumotlarni tushuntirish, izohlash zarur bo'ladi. Natijalar asosiy matnda qanday tartibda berilgan bo'lsa ularni shu tartibda xulosalab ko'rsatish lozim.

Kurs ishining hajmi A 4 formatda 15-20 varaqdan iborat bo'ladi. Har bir sahifada 30 ta satr, har bir satrda 60 ta belgi (so'zlar orasidagi o'rtishlar va tinish belgilarini hisoblagan holda) bo'lishi kerak. O'ngdan-Zam, chapdan - 1 sm, yuqoridan 2,5 sm, pastdan - 2,5 sm joy qoldiriladi. Sarlavha va sarlavhachalar asosiy materialdan 3 interval hajmida ajratiladi va bosma xarflar bilan yoziladi.

Ish mantiqiy izchillikda, adabiy til normalarida yoziladi. Unda murakkab qo'shma gaplardan, shuningdek, o'ta jo'n tuzilgan sodda gaplarni ishlatish maqsadga muvofiq emas.

Mening kuzatishimcha, men hisoblaymanki. mening fikrimcha tarzida 1-shaxs birlilik nomidan gapirish o'rni, bizning kuzatishimizcha biz hisoblaymizki, bizning fikrimizcha kabi iboralaridan foydalanish ilmiy etiketga to'g'ri keladi.

Kurs ishini yozishda yagona uslub saqlanishi, zamonaviy o'zbek (rus) adabiy tilining orfografik, sintaktik va stilistik me'yorlariga amal qilinishi lozim.

1 Xulosa. Bu qismda ishning muallif tomonidan ishlab chiqilgan asosiy natija va xulosalari keltiriladi: ularning amaliy ahamiyati, ish natijalarining joriy qilinish imkoniyatlari va mavzuni kelgusida tadqiq qilish istiqbolari ko'rsatiladi.

Xulosa qo'yiladigan asosiy talab - uning qisqa va mulohazaliligidir. Unda ishning mazmunini butunligicha qaytarish shart emas. Xulosa quyidagi savollarga javob bera olishi kerak:

- a) talaba nima uchun aynan ushbu tadqiqotni amalga oshirdi?
- b) qanday ishlar amalga oshirildi?
- v) muallif qanday xulosalarga keldi? va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati asarlar mualliflarining familiyasi ko'rsatilib alfavit tartibida tuziladi.

Ro'yxatga muallif tomonidan ishini yozish jarayonida foydalanilgan barcha adabiyotlar kiritiladi (bunda ular qacarda nashr qilinganidan ka'tiy nazar alohida nashr, to'plan, jurnal, gazeta bo'lsa ham albatta ko'rsatilishi shart). Ro'yxatda manbalar umumiy raqamlashtirilgan holda keltiriladi. Manbaning ma'lumotlari

ko'rsatilayotganida muallifning ismi-familiyasi, asarning nomi, nashr qilingan joyi va yili, sahifalarining umumiy soni beriladi.

Masalan:

1. Baymetov B.B., Sultanov X.E. Pedagogik ta'lim innovatsion klaster texnologiyalarini joriy etishning ahamiyati / Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnali// №1, T.-2020, 98-103 b.;

2. Sultanov X.E. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish /Zamonaviy ta'lim// №11.-2016.-:61 b.;

3. Illovalar. Ular odatda alohida sahifalarda ko'rsatiladi. Ularning har biri o'z mavzusiga ega bo'ladi va o'ng tomonining yukorisida «Illova» degan yozuv qayd qilinadi. Agar illovalar bir nechta bo'lsa ular «1-illova», «2-illova» tarzida rasmiylashtiriladi.

Illovaqa mustaqil ravishda tuzilgan, anketalar yordamida yig'ilgan empirik material, darslar va tadbiriy tadbiqlarning konspektari, kuzatishlar bayonnomalari, bayram ssenariylari, bolalarning rasmlari va fotosuratlari joylashtiriladi.

Kurs ishiga rahbarlik pedagogik staj, tajribaga ega bo'lgan yoki ilmiy-tadqiqotlar olib borayotgan kafedra o'qituvchilari, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari, turli markazlar xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda yoziladi, bunda u ilmiy rahbar maslahatlaridan foydalanadi va ishining borishi yuzasidan rahbariga hisobot berib boradi.

Kurs ishi rahbari:

a) talabaga tanlangan mavzu doirasidagi masalalar va tadqiqot metodlarini aniqlashda, tayyorgarlik rejasini belgilash va kurs ishini shakllantirishda yordam beradi;

b) talabaga kurs ishi yozish jarayonida maslahatlar berib boradi, tizimli nazoratni amalga oshiradi, bosqichli attestatsiyani o'tkazadi (semestrda ikki marta) va bu haqda kafedra rahbariyatiga xabar beradi;

v) kurs ishini tekshiradi va unga taqdir beradi.

Kurs ishining himoyasi ochiq ravishda o'tkaziladi. Ish muallifi 10 min. davomida ish yuzasidan ma'ruza qiladi va o'qituvchi-talabalarining savollariga javob beradi. Ma'ruza muammoning o'rganilish holati, tajriba-sinov ishlarining natijalari (agar o'tkazilgan bo'lsa), tadqiqotning istiqbolli, xulosa va takliflar aks etgan bo'lishi lozim.

Kurs ishining himoya qilish natijalariga ko'ra talabning reyting dafarchasiga tegishli ball qo'yiladi.

Kurs ishi talabaga kelgusi tadqiqotlarda asos bo'lishi uchun qaytarib beriladi. Juda yaxshi ball va e'tirofga ega bo'lgan kurs ishlari boshqa talabalarga namuna sifatida metodik zahirada saqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishlariga qo'yiladigan talablar

Ijodiy-amaliy ish bo'yicha bitiruv malakaviy ish

Bitiruv malakaviy ish (keyingi o'rinlarda - BMI) - bu o'quv va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi yakuniy ish, ta'lim sohasidagi o'quv-pedagogik vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq talabning mustaqil ilmiy izlanishlari natijasi hisoblanadi. 5110800 - tasviriy san'at va muxandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida BMI himoyasi bitiruvchining mutaxassislikka muvofiq o'quv faoliyatidagi kasbiy vazifalarni mustaqil amaliyotga joriy qilish tayyorgarlik darajasini bildiradi. BMIning tayyorlash va uni himoya qilishda bitiruvchi tasviriy san'at sohasidagi mahorat va ko'nikmalarni, tasviriy san'at nazariyasi va tarixi, uni o'qitish uslublarini bilishi, motivlarini kuzatishi va tahlil qilish qobiliyatini namoyish qila oladigan bo'lishi kerak. Atrofdagi voqelikni va shu asosda ijodiy va o'quv-uslubiy muammolarni mustaqil ravishda hal qilish ko'nikmalarini egallagan bo'lishlari lozim. BMI mavzusi Oliy ta'lim muassasasida tasviriy san'at o'qituvchisi uchun ko'rsatilgan kasbiy faoliyat diplom tadqiqotlari turlari va vazifalari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari tegishli kafedralar tomonidan belgilanadi. Talabaga bitiruv malakaviy ish mavzusini tanlash imkoniyati beriladi. Talabalar birinchi kursda o'qib yurgan paytlarida BMI mavzulari bilan tanishadilar. Oxirgi kursga o'tishdan oldin mavzular bankidan rangtasvir turlari, amaliy san'at turlari, inter'er va ekster'er loyihalari bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan mavzuni tanlashlari mumkin. BMIning amalga oshirish uchun tanlangan mavzular asosida 7-semestrda OTM o'quv rejisiga muvofiq talabalar tanlagan mavzusiga ko'ra kafedralar bo'yicha taqsimlanadi. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash jarayonida talabaga ilmiy rahbar va maslahatchilar tayinlanadi.

BMI bajarish bo'yicha talabalar tomonidan tanlangan mavzu va ilmiy rahbar nomzodi ko'rsatilgan ariza kafedra mudiri nomiga yoziladi hamda arizalar muvofiqdastirilib kafedra yig'ilishida ko'rib chiqiladi (3-ilovaga qarang).
Baynot. 6

Talaba arizasi bo'yicha mavzu va unga ilmiy rahbar tayinlash kafedra mudiri imzosi bilan tasdiqlanadi.

7-semestrda talabalarga BMIning amalga oshirish bo'yicha maxsus amaliy mashabalar beriladi. Shundan keyin mavzu bo'yicha izlanishlar olib boriladi (ijodiy va ilmiy-nazariy materiallarni to'playdilar, rahbarning maslahati bo'yicha mavzuga mos ravishda eskizlarga o'zgartirishlar kiritadilar, pedagogik amaliyotda bolalar bilan ishlash uslubini ishlab chiqiladi).

8-semestrda talabalar BMIning badiiy-ijodiy qismini bajarish uchun diplom talablarini yaqindan o'rganadilar. Institut foyelari, hududni bezatish ishlari (mahobathi rangtasvir, haykaltaroshlik) kabi maqsadli bajarilgan BMIning amaliy qismining dizayn ishlari ketadigan materiallar xarajatlarining ma'lum qismini moddiy yordam bilan sifatida OTM tomonidan to'lanishi mumkin.

Avvalo muammoning tarixini nazariy o'rganiladi, keyin amaliy (ijodiy) qismi va tajriba-sinov ishlari bajariladi.

Masalaning o'rganilganlik darajasini bilib olishga yordam beradigan monografialar va maqolalar kabi umumiy adabiyotlar bilan tanishishdan boshlanadi. Manbalar va adabiyotlar ustida ishlash jarayonida ko'chirma qilish, shuningdek o'rganilayotgan masala bo'yicha muallifning o'z konsepsiyasining mavjudligi to'g'risida qisqacha baholash (xulosa) qilish tavsiya etiladi.

San'atshunoslik va pedagogik nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotlar va manbalarni o'rganilgandan so'ng, BMIning batafsil rejisini tuzish va ilmiy rahbar bilan muvofiqdastirish kerak bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun ta'lim yunalishi kuni rejisida alohida soatlar, ya'ni vaqt ajratilishi lozim. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda talabalarga quyidagilar asos bo'lib xizmat qiladi:

a) bir kurs doirasida referat, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarining ketma-ketligi;

b) bir-biriga yaqin fanlar: pedagogika, psixologiya, xususiy fanlar metodikasi kabi fanlardan talabalar tomonidan bajarilgan kurs ishlari ko'zda tutilgan turli vazifalarni muvofiqdastirish;

v) pedagogik amaliyotning barcha ko'rinishlaridan foydalanish va h.k.

Talabanning bitiruv malakaviy ishni ustidagi izlanishlari nazariyani chuqurroq o'rganish, ilgari olingan bilimlarni tizimlashtirish va ularni amaliyotda samarali qo'llash, mustaqil tadqiqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, eruditsiyaning o'sishi uchun hiszat kiladi.

Odatda bitiruv malakaviy ishining mavzusi talabaga uning so'ngi pedagogik amaliyotga ketishidan avval beriladi va tasdiqlanadi. Shu paytning o'zida unga bitiruv malakaviy ishiga oid bo'lgan, ilmiy rahbar tomonidan tuzilgan va kafedra

mundiri tomonidan tasdiqlangan topshiriqlar beriladi. Bunda ishini yakunlash muddatlari ham ko'rsatiladi. Topshiriqda talabning ismi, familiyasi, otasining ismi, o'qiyotgan fakulteti va mavzusi yoziladi. Agar bitiruv malakaviy ishi kurs ishining davomi bo'lsa, nimalar qilingani, dastlabki ma'lumotlar qanday ekanini ko'rsatish lozim. So'ngra qanday masalalarni ishlab chiqish kerakligi, qanday tajriba-sinov ishlari rejalashtirilgani, bu ishlar qoerda o'tkazilishi, bitiruvchiga kim masalalar berib borishini belgilash zarur. Talaba bitiruv malakaviy ishining kalendar rejasini tuzish bilan vazifalar aniqlashtiriladi. 2-ildovada BMLni tayyorlash va himoya qilish uchun taxminiy kalendar reja namunasi keltirilgan.

Bu esa o'z o'rnida talabanning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkili etish, uni doimiy nazorat qilish va zarurat bo'lganda, unga ko'maklashish imkonini beradi.

Kalendar reja adabiyotlarni tanlash va o'rganish, boshqa manbalar bilan tanishish, tajriba-sinov ishlarni tashkili etish va o'tkazish natijalarni tahlili qilish va qayta ishlash, xulosalar chiqarish, bitiruv malakaviy ishini uslubiy va texnik tomondan mukammallashtirish, himoyaga tayyorlanish uchun sarflanadigan vaqtni to'g'ri taqsimlashga yordam beradi.

Talaba moyilligi bo'yicha bajaragan ma'lum bir janr va texnikada kurs ishini takomillashtirib BML himoyasini qilishi mumkin.

Mazmunan kurs ishi va bitiruv malakaviy ishi o'rtasida uzviy bog'lanish bo'lishi kerak: bitiruv malakaviy ishining ijodiy rivojlanishi unda kurs ishida ko'tarilgan muammo yanada chuqurrok o'rganiladi. Biroq kurs ishining mahitini mexanik ravishda, so'zma-so'z bitiruv malakaviy ishiga ko'chirish mumkin emas. Kurs ishining asosiy natijalari bitiruv malakaviy ishi muammosini ijodiy hal etish uchun dastlabki material bo'lib xizmat qilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishini bajarish bo'yicha ish rejasini tahmian quyidagicha tuzish mumkin:

1. Kurs ishining bir qitrasini chuqur tahlili qilish maqsadida tanlab olish. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini aniqlashtirish.
2. Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzish.
3. Muammoni belgilash, uning fan va adabiyotdagi o'rnini tahlili qilish.
4. Tadqiqot mavzusi bo'yicha tayanch tushunchalarni ajratish va tahlili qilish.

5. Bitiruv malakaviy ishi rejasini tuzish.
6. Mavzuning dolzarbligini asoslash.
7. «Mavzuning dolzarbligini» nomli matnini tayyorlash, bunda ishning asosiy tavsifini berish (tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari vah.k.)

8. Tadqiqot mavzusi bo'yicha nazariy manbalarning chuqur tavsifini berish.

9. «Tadqiqot mavzusi bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili» nomli matn tayyorlash. Bunda quyidagilar berilishi mumkin:

- a) muammo (g'oya, masala) ning o'rganilish tarixi;
- b) tadqiqot ob'ekti ta'riflovchi umumpedagogik va boshqa ilmiy qonun-qoidalar;

- v) didaktik qoidalar;
- g) metodik qoidalar;
- d) psixologik qoidalar.

10. «Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar tahliliga oid xulosalar» nomli matnini tayyorlash.

11. Ko'tarilgan muammoni hal etishning turli usullarini ishlab chiqish.

12. Muammoni yechishning optimal usulini aniqlash.

13. Tajriba-sinovning dastlabki bosqichini o'tkazishga tayyorlanish (metodikani rejalashtirish, ishlab chiqarish, asbob-uskunalar, o'quv mashg'ulotlarining va tarbiyaviy tadbirlarning reja-konpektini, didaktik test va h.k. tayyorlash).

14. O'rganilayotgan masalaning mavjud ahvoli hakida tasavvurga ega bo'lish uchun tajribaning dastlabki tankidiy bosqichini amalga oshirish.

15. Tajriba-sinov ishlarning tahlili, jadval, chizma, rasmlarni tayyorlash, natijalarni kayd etish.

16. «Tajriba-sinovning dastlabki bosqichi» nomli matnini tayyorlash.

17. Tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichini tayyorlash (tajriba olib borish va uni kuzatishning metod hamda vositalarni rejalashtirish, ishlab chiqish, natijalarni kayd etish usullarini ishlab chiqish va h.k.)

18. Tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichini o'tkazish va tahlili qilish (kuzativ bayonnomalari, yozma ishlar, rasmlar, subbat natijalari va h.q.).

19. Tahlili natijalarni jadval, chizma, diagramma, rasmlarda ko'rsatish, tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichi bo'yicha natija va xulosalarni yozish (material bunga imkon bersa).

20. «Tajriba-sinov ishlari» nomli matnini tayyorlash. Bunda tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichiga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish sharoitlarini yoritish, gatahashchilar haqida ma'lumot, ularning tajribadan oldingi va tajribadan keyingi ko'rsatkichlari, o'tkazilgan (o'quv yoki tarbiyaviy) mashg'ulotlarning nomi va ketma-ketligi, natijalar tahlili, xulosa va tavsifatlarini

ko'rsatish.

21. Zarurat bo'lganda tajriba-sinovning shakllaniruvchi bosqichini qayta o'tkazish.

22. Tayyorlangan ma'nalarni boblar shaklida jamlash.

23. Boblar bo'yicha xulosalarni tayyorlash va yozish.

24. Umumiy xulosalarni yozish.

25. Adabiyotlar ro'yxatini tuzish.

26. Ilovalarni (jadval, chizma, so'rovnoma, rasm, dars yoki tarbiyaviy ishlarining reja-konspektlarini va h.k.) rasmiylashtirish.

27. Bitiruv malakaviy ishining muntarjasini aniqlashtirish.

28. Tirul varag'ini yozish.

Umumiy, bitiruv malakaviy ishi kurs ishining mantiqiy davomi bo'lib, asosiy g'oya va xulosalar qayta idrok etiladi, yangi ma'lumotlar, kuzatuv hamda tajriba natijalari bilan boyitiladi. Shu tariqa, bitiruv malakaviy ishi nazariy va amaliy jihatdan yuqoriroq darajadagi mukammal tadqiqot ishi bo'ladi. Shu bilan birga, bitiruv malakaviy ishi yangi pedagogik tajribani (agar u ko'zda tutilgan bo'lsa) o'tkazish davomida olingan boshqa daliliy materialning mustaqil tadqiqi yoki adabiy manbalarni chuqurrok o'rganish va idrok etishning natijasidir.

Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishining o'xshash hamda farqli jihatdari

Bitiruv malakaviy ishining kurs ishidan katta farqi (tajriba-sinov ishlarini o'tkazish inkoniyati va zarurati mavjud bo'lsa) pedagogik tajribaning tashkil etilishidadir. Kurs ishini bajarish uchun talaba ta'kidlovchi tajriba bilan kifoyalanishi mumkin. Buning uchun u o'quvchilar bilan savol-javob (so'rovnoma, intervyu, suhbat va boshqalarni) o'tkazadi.

Bitiruv malakaviy ishida ta'kidlovchi tajriba ishi doim ham yetarli bo'lmaydi. Ko'pincha shakllaniruvchi tajriba o'tkaziladi. Uning mohiyati shundaki, hodisa va jarayonlar qat'iy nazorat qilish va boshqarish sharoitida o'rganiladi. Ixtalagan tajribaning asosiy tamoyili tadqiq qilinayotgan jarayonlarning har birida boshqa omillar o'zgarishsiz qolgan holda birgina omilni o'zgartirishdan iborat.

Tajriba ishining quyidagi bosqichlarini ajratish mumkin:

1. Faraz hamda asosiy maqsad va vazifalarni belgilash.
2. Tajriba dasturini ishlab chikish.
3. Tadqiqot natijalarini qayd qilish usullarini ishlab chiqish.
4. Tajribani o'tkazish.

5. Natijalarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish.
6. Natijalarni umumlashtirish, izohlash, xulosalarni yozish.

Bitiruv malakaviy ishining taxminiy tuzilishi va bo'limlarining mazmuni.

BMIning tarkibi tasviriy san'at va chizmachilik o'quvchisi mutaxassisligining kasbiy pedagogik yo'nalishi va bitiruvchining kelajakdagi faoliyati mazmuni bilan asoslanadi.

BMIning amaliy-ijodiy varianti ikkita asosiy qismini o'z ichiga oladi:

1. Amaliy (ijodiy) – ma'lum bir texnika va jandagi ishning tugallangan varianti. Amaliy-ijodiy ish bilan birga uning eskiz materiallari (qoralama, ranglavha, ilk eskizlari, karton va boshqalar) bo'lishi talab etiladi.

2. Nazariy qismda mavzu bo'yicha o'rganilgan tarixiy ma'lumotlar, ijodiy ishini bajarish texnologiyasi bo'yicha materiallar, pedagogik amaliyot, tasviriy san'at chizmachilikni o'qitish metodikasi, badiiy ijod psixologiyasi, o'quvchilardagi tasviriy faoliyat psixologiyasi masalalari mavjud bo'lishi kerak. BMI mavzusini tanlash asoslanadi, dolzarbli aniqlanadi, maqsad, vazifalar belgilanadi, gipoteza, tadqiqot predmeti va ob'ekti shakllantiriladi. BMIning ilmiy-nazariy, badiiy, uslubiy va amaliy ahamiyati, amaliy ish jarayoni ochib beriladi, ish natijalarini bolalar bilan ishlashda ta'limga tatbiq etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar beriladi.

BMINING NAZARIY QISMINI BAJARISH BO'YICHA KO'RSATMALAR

BMI nazariy qismining tuzilishi va tarkibiy qismi.

BMI nazariy qismining mazmuni uning amaliy (ijodiy) qismi mavzusi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. BMI san'at tarixida tanlangan mavzuning rivojlanishining aks ettirishi, pedagogika va psixologiya hamda tasviriy san'atni o'qitish metodikasini o'quvchilarning tasviriy faoliyati asosida ko'rib chiqilishi, amaliy ishning bajarish bosqichlari tavsiflanishi kerak.

Tadqiqotning dolzarbligini quyidagilar bilan belgilanadi.

- nazariy bilimlarni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq masalalar asosida to'ldirish yoki aniqlashtirish zarurati;
- yangi ma'lumotlar, usullar va tadqiqot metodlariga ehtiyojning mavjudligi;
- amaliyotga bo'lgan ehtiyoj.

BMI ning maqsadi – tadqiqotda hal qilinishi istalgan yakuniy natija.

BMI vazifalari. Tadqiqot ishini amalga oshirishda vazifalar belgilab olinadi. Unda bir nechta vazifalar qo'yilishi mumkin.

Tadqiqot usullari - tadqiqot olib borilgan usullar ro'yxati shakllantiriladi.

BMIning nazariy ahamiyati - nazariy xulosalar qayisi bilim sohasiga ta'sir qilishi mumkinligi, amaliy ishini tatbiq etishning istiqbollari qandayligi.

BMIning amaliy ahamiyati - olingan tavsiyalar, takliflarning ta'lim jarayoniga ta'siri, amaliy masalalarni hal qilish bilan belgilanadi.

1. BMIning nazariy qismini quyidagilardan tashkil topadi: kirish - umumiy xajmining 10%; nazariy qism - nazariy masalalarni qo'yishdan ko'zlangan maqsad, ularni o'rganish 25-30%; tahliliy qismi - 15-20%; tajriba-sinov ishlarini o'z ichiga olgan qismi - 30-35%; xulosalar - 5%; adabiyotlar ro'yxati.

2. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi, undagi boblar mutanosibligi har bir ishning mavzusi, ob'ekti, predmeti, maqsadiga bog'liq holda alohida belgilanadi. Bo'limlarga masalalarning tarixi va uning zamonaviy holati, dolzarbligini ko'rib chiqish, mavzu bo'yicha adabiyotlarni o'rganish, taqdimot va muammo bo'yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va mualliflik pozitsiyasini asoslash, tanlangan tadqiqot metodologiyasi asosida to'plangan materialni o'rganish, tahlil qilish va tasniflash kiritiladi. Har bir bob tadqiqot natijalarini qisqacha, ixcham va umumlashtirilgan bayon qiladigan xulosalar bilan yakunlanadi. Xulosalar oldinga qo'yilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq bo'lishi kerak. Bitiruv malakaviy ishining hajmi bitiruvchi ijodiy-amaliy vazifa qilganligi sababli matn, jadvallar, illustratsiya materiallari bilan birga 25-30 sahifani tashkil etishi lozim.

3. **Kirish.** Aniq tuzilgan bo'lishi kerak, u BMI mavzusidagi fikrlarini qisqacha o'zida aks ettiradi. Kirishda yoritilayotgan mavzuning ijtimoiy va pedagogik jihatdan dolzarbligini asoslanadi, muammo belgilanadi, tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi ko'rsatiladi, tadqiqotning farazi, vazifalari, metodologik asosi yoritiladi, tanlangan mavzuning ishlanganlik darajasi aniqlanadi, tadqiqot olib borish metodlari, manbalar, dastlabki ma'lumot qisqacha tavsiflanadi. Kirish qismining so'nggi varianti ishning boshqa qismlari tayyor bo'lganidan keyin yoziladi.

4. **1-bob** Bitiruv malakaviy ishining bu qismida tasviriyy san'at va uni o'qitish metodikasi tarixi, mavzuning asosiy masalalari, masalalarga bag'ishlangan, bo'yicha nazariy ma'lumotlar bayon etiladi, ilmiy maktablar mualliflarining qarashlari tahlil qilinadi va umumlashtiriladi, ko'rib chiqilayotgan sohada olib borilgan tadqiqotlar guruhlashtiriladi, turi metodik

yondashuvlar baholanadi. Bitiruvchining o'z qarashlari, konsepsiyasi belgilanadi, bular asosida ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajribaga tayyoragarlik ko'rish uchun metodik yondashuv tanlanadi. Mazkur qism mazmunini bayon etish jarayonida muallif nazariy bilimlardan pedagogik amaliyot tahliliga xususiy xodisalar tahlildan nazariy umumlashtirishga o'tishi zarur.

